“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomi: individual, kollektiv va gradient huquq subyektligi konsepsiyalarining qiyosiy tahlili

Farxodjon Abdixakimov,
O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: fabdihakimov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada sun’iy intellekt tizimlarining fuqarolik huquqiy maqomini aniqlashga oid zamonaviy nazariy yondashuvlar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Maqolada sun’iy intellektni individual huquq subyektligi konsepsiyasining nazariy zaifliklari, xususan, ong va o‘zini anglash mezonining huquqiy noaniqligi hamda amaliy qo‘llashdagi murakkabliklari ilmiy jihatdan tanqid qilinadi. Tadqiqotda kollektiv huquq subyektligi modeli va yuridik fiksiya asosida sun’iy intellekt tizimlariga huquqiy maqom berish imkoniyatlari alohida e’tibor markazida bo‘lib, ushbu yondashuvning afzalliklari va cheklovlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, gradient huquq subyektligi konsepsiyasi zamonaviy huquqiy rivojlanish tendensiyalariga moslashuvchan model sifatida baholanib, unda sun’iy intellekt tizimlariga to‘liq emas, balki funksional zaruriyatdan kelib chiqib cheklangan huquq va majburiyatlar berilishi maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Калит сўзлар. sun’iy intellekt, huquqiy maqom, huquq subyektligi, individual huquq subyektligi, kollektiv huquq subyektligi, gradient huquq subyektligi, yuridik fiksiya

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются современные теоретические подходы к определению правового статуса систем искусственного интеллекта. В работе подвергаются научной критике теоретические слабости концепции индивидуальной правосубъектности искусственного интеллекта, в частности неопределённость критерия сознания и самосознания, а также сложности его практического применения. Особое внимание уделяется модели коллективной правосубъектности и возможностям придания системам искусственного интеллекта правового статуса на основе юридической фикции; их преимущества и ограничения раскрываются посредством сравнительно-правового анализа. Кроме того, концепция градиентной правосубъектности рассматривается как гибкая модель, соответствующая современным тенденциям развития права. Обосновывается целесообразность предоставления системам искусственного интеллекта не полной, а ограниченной правосубъектности, исходя из функциональной необходимости, с наделением их соответствующими правами и обязанностями.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. искусственный интеллект, правовой статус, правосубъектность, индивидуальная правосубъектность, коллективная правосубъектность, градиентная правосубъектность, юридическая фикция

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of contemporary theoretical approaches to defining the legal status of artificial intelligence systems. It critically examines the theoretical weaknesses of the concept of individual legal personality of AI, particularly the ambiguity of the criteria of consciousness and self-awareness, as well as the difficulties associated with its practical application. The study places special emphasis on the model of collective legal personality and the possibility of granting legal status to AI systems through the use of legal fiction; the advantages and limitations of this approach are explored through comparative legal analysis. In addition, the concept of gradient legal personality is assessed as a flexible model that corresponds to modern trends in legal development. The article substantiates the expediency of granting AI systems not full legal personality, but a limited set of rights and obligations determined by functional necessity.

Keywords. artificial intelligence, legal status, legal personality, individual legal personality, collective legal personality, gradient legal personality, legal fiction

Kirish. Sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomini aniqlash masalasi zamonaviy huquqshunoslikdagi eng murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo sun’iy intellekt tizimlarining tobora murakkablashib borayotgani, ularning qaror qabul qilishdagi funksional mustaqilligi ortayotgani hamda fuqarolik muomalasida, boshqaruvda va ijtimoiy hayotda real ta’sir kuchiga ega bo‘layotgani bilan izohlanadi. Shu sababli ularni faqat huquq obyekti sifatida baholash modeli barcha holatlarda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik hamda ular yaratgan intellektual faoliyat natijalariga egalik masalalari amaldagi huquqiy konstruktsiyalarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Shu bilan birga, ayrim ilg‘or modellarni “oshirilgan xavf manbai” yoki “avtonom harakat qiluvchi alohida turdagi mol-mulk” sifatida baholash haqidagi takliflar ham huquqiy doktrinada muhim o‘rin egallay boshladi[1]. Bu esa sun’iy intellektga oid huquqiy rejimni faqat mulkiy obyektlar nazariyasi bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Sun’iy intellekt tizimlariga huquq subyektligi berish masalasida eng radikal yondashuv individual huquq subyektligi konsepsiyasi bilan bog‘liqdir. Mazkur yondashuv tarafdorlari “to‘liq inklyuzivlik” g‘oyasini ilgari surib, muayyan rivojlanish bosqichiga yetgan SI tizimlariga inson bilan qiyoslanadigan huquqiy maqom berish mumkinligini ta’kidlaydilar[2]. Bu yondashuv doirasida sun’iy intellekt tizimlarining ijtimoiy ahamiyati, ularning ijtimoiy valentligi, shuningdek robotlarning antropomorf ko‘rinishi va ularga nisbatan

insonlarda yuzaga keladigan hissiy proyeksiya ham nazariy asos sifatida ko‘rsatiladi. Ayrim mualliflar, konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtayi nazardan, “shaxs” tushunchasining legal ta’rifi qat’iy va yopiq bo‘lmaganligi sababli, uni kengroq talqin qilish ehtimolini ham nazariy jihatdan istisno etmaydilar[3]. Shu asosda sun’iy intellekt tizimlariga fuqarolarning aynan o‘z huquqlari emas, balki ularning analoglari va ayrim maxsus huquqlarini berish mumkinligi aytiladi. Bunday huquqlar qatoriga erkin bo‘lish huquqi, o‘zini takomillashtirish huquqi, dasturiy daxlsizlik, cheklangan mulk huquqi, ijod erkinligi va hatto elektr energiyasi manbayiga kirish huquqi kabi takliflar kiritiladi. Majburiyatlar sifatida esa A. Azimovning robototexnika haqidagi uchta mashhur qonunini normativ darajada mustahkamlash g‘oyasi ham tilga olinadi[4].

Biroq individual huquq subyektligi konsepsiyasi ko‘plab asosli e’tirozlarga uchraydi.

Birinchidan, huquq subyektligini ong va o‘zini anglash mezoniga bog‘lash abstrakt va normativ jihatdan beqaror mezon hisoblanadi. Bu haqda Chopra va White sun’iy agentlarga huquqiy shaxs maqomini berish uchun ong va o‘z-o‘zini anglash kategoriyalari na zarur, na yetarli shart ekanini ko‘rsatadilar[5]. Haqiqatan ham huquqiy amaliyotda to‘liq ongli bo‘lgan har qanday inson doim ham to‘liq huquq subyekti bo‘lmagan, aksincha, og‘ir ruhiy holatdagi yoki koma holatidagi shaxslar ongini faol namoyon qila olmasalar-da, ularning huquqiy maqomi saqlanib qoladi. Demak, ongni huquq subyektligi uchun mezon sifatida normativlashtirish huquqiy noaniqlik va potensial suiiste’mollarga yo‘l ochishi mumkin.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt tizimlari huquq va majburiyatlarni an’anaviy huquqiy ma’noda amalga oshira olmaydi, chunki ularning qarorlari inson tomonidan yaratilgan algoritmlar, ma’lumotlar va dastlabki maqsad funksiyalarining hosilasidir. Shu ma’noda ularning qarorlarini haqiqiy irodaviy va axloqiy tanlov emas, balki “harakat-operatsiya” sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi[6].

Uchinchidan, sun’iy intellektni individual shaxs sifatida tan olish huquqning antropotsentrik tabiatiga va inson huquqlari nazariyasining tarixiy asoslariga jiddiy zarba berishi mumkin. Bryson, Diamantis va Grant ham sintetik mavjudotlarga huquqiy shaxs maqomini berish g‘oyasi axloqan shart emas va huquqiy jihatdan muammoli ekanini ko‘rsatadilar[7]. Shu bois individual huquq subyektligi modeli mavjud huquqiy tartibot sharoitida yuridik jihatdan norealistik deb baholashimiz mumkin.

Individual modelga nisbatan muvozanatliroq yondashuv sifatida kollektiv huquq subyektligi konsepsiyasi ilgari suriladi. Ushbu modelning asosiy afzalligi shundaki, u ong, o‘zini anglash, aql-idrok yoki axloq kabi bahsli tushunchalarni huquqiy texnikadan chiqarib tashlaydi va ularning o‘rniga yuridik fiksiyadan foydalanadi. Hars sun’iy intellekt va huquqiy shaxs masalasini tahlil qilar ekan, yuridik shaxslarga nisbatan allaqachon ishlab chiqilgan ilg‘or tartibga solish usullarini SIning huquqiy maqomi masalasiga moslashtirish

mumkinligini qayd etadi[8]. Bu yondashuv sun’iy intellektga jismoniy shaxs maqomi berishni nazarda tutmaydi; aksincha, mavjud yuridik shaxslar institutining amal qilish doirasini kengaytirish va yangi turdagi “kibernetik elektron organizmlar”ni huquqiy konstruksiya sifatida yaratishni taklif qiladi[6]. Mazkur model doirasida yuridik shaxs tor korporativ ma’noda emas, balki jismoniy shaxsdan farqli ravishda qonun tomonidan huquq va majburiyatlar bilan ta’minlanadigan istalgan ideal huquqiy konstruksiya sifatida talqin etiladi. Shuningdek, SI tizimlari va yuridik shaxslar o‘rtasidagi o‘xshashlik ularning huquq subyektligiga ega bo‘lish usulida ko‘riladi: yuridik shaxs qanday qilib davlat ro‘yxatidan o‘tgach huquq layoqatiga ega bo‘lsa, sun’iy intellekt tizimlariga nisbatan ham maxsus davlat reyestriga kiritish huquqiy maqom berishning zarur sharti sifatida ko‘riladi[9]. Ushbu mexanizm nazorat, hisobdorlik va kontragentlar uchun huquqiy aniqlikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, kollektiv huquq subyektligi modeli ham cheklovlardan xoli emas. Yuridik shaxslarning klassik modeli ortida har doim jismoniy shaxslar turadi, ular tashkilot irodasini shakllantiradi va tashkiliy boshqaruv orqali huquqiy xatti-harakatlarga ma’no beradi. Sun’iy intellekt tizimlarida esa muammo shundaki, ular yaratilgandan keyin ayrim hollarda inson aralashuvisiz ham funksional qarorlar qabul qila oladi. Bu esa yuridik shaxs va SI tizimi o‘rtasidagi analogiyani to‘liq va muammosiz deb tan olishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, SI tizimlari yuridik shaxslar uchun majburiy bo‘lgan tashkilot birligi, ichki boshqaruv strukturasi va an’anaviy institutsional shakllarga ham to‘liq javob bermaydi. Shu sababli kollektiv model istiqbolli, biroq mavjud yuridik an’analarga to‘liq mos tushmaydigan model sifatida baholashimiz mumkin. Shuni ham qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, bu yerda Chestermanning “shaxs maqomi binar bo‘lsa-da, uning mazmuni spektrni tashkil etadi” degan g‘oyasi ayniqsa muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[10].

Yana bir yondashuvlardan biri bu gradient huquq subyektliligi bo‘lib, ushbu konsepsiya eng realistik yondashuv sifatida ilgari suriladi. D.M. Mokanu bu modelni “gradient legal personhood” deb atab, uning mohiyatini huquq va majburiyatlarni to‘liq yoki umuman bermaslik emas, balki minimal zarur to‘plamni ma’lum maqsadlar uchun tanlab berish bilan izohlaydi[11]. Bertolini va Episkopo ham ontologik jihatdan SI tizimlarini huquq subyekti deb tan olish uchun asoslar yetarli emasligini, biroq aniq funksional vaziyatlarda ularni tor va cheklangan shakldagi huquqiy maqom bilan ta’minlash individual va ijtimoiy manfaatlarni yaxshiroq himoya qilish usuli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar[12]. Shu bois gradient model ikki asosiy variatsiyada ko‘riladi: “elektron shaxs” va “elektron agent” shaklida. Birinchi model maxsus huquqiy institut yaratishni ko‘zda tutsa, ikkinchi model fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida SI tizimiga kvazi-subyektlik elementlarini beradi. Bugungi kun fuqarolik-huquqiy munosabatlarining

holatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, aynan “elektron agent” modelini eng muvozanatli va amaliy yondashuv deb baholash mumkin.

“Elektron agent” yondashuvi, ayniqsa, onlayn savdo, raqamli vositachilik, kontragentlar o‘rtasidagi kommunikatsiya va avtomatlashtirilgan bitimlar sohasida muhim ahamiyatga ega. Morhatning yondashuviga ko‘ra, SI tizimlari ma’lum ma’noda agentlik munosabatlari doirasida qaralishi mumkin, chunki ular prinsipal nomidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishga qodir[13]. Rossiyada tayyorlangan va norasmiy ravishda “Grishin qonuni” deb atalgan 2016-yilgi loyiha ham aynan shu yo‘nalishda robot-agentni fuqarolik muomalasining maxsus ishtirokchisi sifatida tasvirlagan: unga alohida mol-mulk biriktirish, o‘z nomidan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish va ayrim hollarda protsessual ishtirok imkoniyatini berish taklif etilgan[14]. Shu bilan birga, mazkur modelning muammolaridan biri bu “elektron agent”ning alohida mol-mulkka egaligi va javobgarligi masalasidir.

Biroq ushbu yondashuvlar tahlilidan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, aynan gradient va funksional yondashuv – SI tizimlarini fuqarolik huquqi obyekti sifatida saqlagan holda, ayrim hollarda ularni “elektron agent” sifatida kvazi-subyektga aylantirish – mavjud huquqiy tartibotga eng yaqin va amalga oshirish ehtimoli eng yuqori bo‘lgan modeldir. Bu modelda hatto virtual SI tizimlarini ham qamrab olish imkoniyati saqlanadi, ya’ni “elektron agent” faqat robot emas, balki virtual intellektual tizim ham bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arkhipov, V. V., Naumov, V. B. Artificial Intelligence and Autonomous Devices in Legal Context: on Development of the First Russian Law on Robotics. 2017. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2947845

2. Mulgan, T. (2019). Corporate Agency and Possible Futures. Journal of Business Ethics, 154, 901–916. https://doi.org/10.1007/s10551-018-3887-1

3. Нечкин, А. В. (2020). Конституционно-правовой статус искусственного интеллекта в России: настоящее и будущее. Lex Russica, 8(165), 78–85. https://doi.org/10.17803/1729-5920.2020.165.8.078-085

4. Arkhipov, V. V., Naumov, V. B. Artificial Intelligence and Autonomous Devices in Legal Context: on Development of the First Russian Law on Robotics. 2017. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2947845

5. Chopra, S., & White, L. (2004). Artificial Agents – Personhood in Law and Philosophy. In Proceedings of the 16th Eureopean Conference on Artificial Intelligence, ECAI’2004, including Prestigious Applicants of Intelligent Systems, PAIS 2004 (pp. 635–639). Valencia: IOS Press.

6. Musina, K. S. (2023). Theoretical aspects of identifying legal personality of artificial intelligence: cross-national analysis of the

laws of foreign countries. RUDN Journal of Law, 27(1), 135–147. (In Russ.). https://doi.org/10.22363/2313-2337-2023-27-1-135-147

7. Bryson, J. J., Diamantis, M. E., & Grant, Th. D. (2017). Of, For, and By the People: The Legal Lacuna of Synthetic Persons. Artificial Intelligence and Law, 25, 273–291.

8. Hárs, A. (2022). AI and international law – Legal personality and avenues for regulation. Hungarian Journal of Legal Studies, 62(4), 320–344. https://doi.org/10.1556/2052.2022.00352

9. Popova, A. V. (2018). New Subjects of the Information Society and the Knowledge Society: To the Question of Legal Regulation, Journal of Russian Law, 6(11), 14–24. (In Russ.). https://doi.org/10.12737/art_2018_11_2

10. Chesterman, S. (2020). Artificial Intelligence and the Limits of Legal Personality. International & Comparative Law Quarterly, 69, 819–844. https://doi.org/10.1017/s0020589320000366

11. Mocanu, D. M. (2021). Gradient Legal Personhood for AI Systems – Painting Continental Legal Shapes Made to Fit Analytical Molds. Frontiers in Robotics and AI, 8, Art. 788179. https://doi.org/10.3389/frobt.2021.788179

12. Bertolini, A., & Episcopo, F. (2022). Robots and AI as Legal Subjects? Disentangling the Ontological and Functional Perspective. Frontiers in Robotics and AI, 9, Art. 842213. https://doi.org/10.3389/frobt.2022.842213

13. Morkhat, P. M. (2018a). Artificial intelligence unit as electronic personality. Bulletin of the Moscow State Regional University (Jurisprudence), 2, 61–73. (In Russ.). https://doi.org/10.18384/2310-6794-2018-2-61-73

14. Filipova, I. A., Koroteev, V. D. Future of the Artificial Intelligence: Object of Law or Legal Personality? Journal of Digital Technologies and Law, 2023.